

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatি
Komplayens xizmati tomonidan 2023-yil davomida korrupsiyaviy
xavf-xatarlarni aniqlash va baholash yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlар
to‘g‘risida**

H I S O B O T

Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 31-avgustda 3383-sон bilan ro‘yxatga olingan (korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo‘yicha) Uslubiyot hamda Jamiyatning tegishli ichki idoraviy hujjathlariga ko‘ra, **“Qizilqum” kon boshqarmasida** joriy yilning fevral-mart oylarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash o‘tkazildi. Baholash natijalariga ko‘ra, **287 ta** funksiyalar baholanib, shundan **12 ta “yuqori”** va **30 ta “o‘rta”** darajadagi xavf-xatarlar aniqlanib, ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2023-yil 20-aprelda **36 ta** banddan iborat chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi. Ushbu Dasturning **23 ta** bandi ijrosi ta’minlandi va qolgan **13 ta** bandlar ijrosi nazoratga olindi.

Shu bilan birga, **“NMZ” ishlab chiqarish birlashmasida** joriy yilning may-iyun oylarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash o‘tkazildi. Baholash natijalariga ko‘ra, **325 ta** funksiyalar baholanib, shundan **17 ta “yuqori”** va **51 ta “o‘rta”** darajadagi xavf-xatarlar aniqlanib, ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2023-yil 10-avgustda **57 ta** banddan iborat chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi. Ushbu Dasturning **47 ta** bandi ijrosi ta’minlandi va qolgan **10 ta** bandlar ijrosi nazoratga olindi.